Abishov Genjebay Matjanovich (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); email: genjebaya@mail.ru)

XIX ASR QORAQALPOQ SHOIRLARI ASARLARIDA QO‘LLANILGAN ZOOTOPONIMLAR

Annotatsiya. *Zootoponimlar bizga suv obyektlarida, o‘rmon va cho‘llarda, dashtlarda yashovchi jonzotlar haqida qimmatli ma’lumot beradi. Bu maqolada XIX asr qoraqalpoq shoirlari asarlarida uchraydigan ayrim zootoponimlar tahlil qilindi. Ularning toponim tarkibida kelib, ta’kidlash sabablari o‘rganilib, asarlar tilida qo‘llanilish xususiyatlari aniqlandi. Zootoponimlarning lingvistik tadqiqi o‘sha joyning hayvonot dunyosini o‘rganishda muhim ekanligi isbotlab berildi.*

Kalit so‘zlar: *XIX asr qoraqalpoq shoirlari, zoootoponim, Qusxonatov, Qoraboyli, Qo‘tonko‘l.*

ЗООТОПОНИМЫ, ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ КАРАКАЛПАКСКИХ ПОЭТОВ XIX ВЕКА

Аннотация. *Зоотопонимы дают нам ценную информацию о животных, обитающих в водных объектах, лесах, пустынях и степях. В данной статье анализируются некоторые зоотопонимы, встречающиеся в произведениях каракалпакских поэтов XIX века. Причины их упоминания в составе топонимов были изучены, и были выявлены особенности их употребления в языке произведений. Лингвистическое изучение зоотопонимов доказало свою важность в изучении животного мира данной местности.*

Ключевые слова: *Каракалпакские поэты XIX века, зоотопоним, Кусханатау, Карабайлы, Кутанкуль.*

ZOOTOPONYMS USED IN THE WORKS OF 19TH-CENTURY KARAKALPAK POETS

Annotation. *Zootoponyms provide us with valuable information about animals living in water bodies, forests, deserts, and steppes. This article analyzes some zootoponyms found in the works of 19th-century Karakalpak poets. The reasons for their inclusion in toponyms were studied, and the specific features of their use in the language of the works were identified. The linguistic study of zootoponyms has proven its importance in studying the local fauna.*

Key words: *19th-century Karakalpak poets, zootoponym, Qusxanataw, Qarabayli, Qutankul.*

Kirish. Toponimlar til bilan jamiyat, tabiat va tarix o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘rsatib beruvchi onomastik birliklardir. Jumladan, hayvon nomlaridan yasalgan zootoponimlar hududning fauna tarkibini, aholining turmush tarzini, ya’ni, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik bilan aloqasini aks ettirishda alohida ahamiyatga ega.

XIX asr qoraqalpoq shoirlari asarlarining til xususiyatlari, so‘z qo‘llash mahorati lingvistik aspeklarda bir qancha o‘rganildi. Ammo ularning tug‘ilgan joy, Vatan mavzusidagi asarlarida uchraydigan zootoponimlarning semantik tavsiflari tilshunos olimlar tomonidan maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan emas.

Zootoponimlar, ko‘pincha, ma’lum bir joyda hayvon turlarining ko‘p tarqalganligi, shu hayvon bilan bog‘liq voqealar yoki xalqning mifologik tasavvurlari asosida paydo bo‘ladi. Hayvonlar sadoqat, jasorat, kuch, ayyorlik kabi ramziy ma’nolarga ham ega bo‘lib, bu ma’nolar toponimlarga ham o‘tishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hayvonot dunyosi insoniyot bilan birga hayot kechiradi. Qadimda qabilalar atrofdagi hayvonlarni o‘rganib, yashagan joylarida ularga mos nomlar bergan. Qozoq tilidagi joy nomlarini o‘rgangan T.Januzaqov: “Zoonimlar tilning har bir davri bo‘yicha boy material beradi. Ularning tarkibida eski grammatik shakllar, chetdan kirgan, tarixiy, dialektik so‘zlarni uchratish mumkin” deb keltiradi [5;69–70-b.]. Zoonimlarning toponimga aylanishini esa Tog‘li Oltoy o‘lkasining toponegizini o‘rgangan O.T.Malchonova hayvon, qush, jonivor nomlari to‘g‘ri ma’nosi orqali toponimga o‘tib, nomlar yasashini (masalan, *tulki – Tulki*), uy hayvonlarining nomi esa faqat ko‘chma ma’noda toponimga aylanishini aytadi [6;111–112-b.]. Ya’ni, hayvon nomlaridan yasalgan toponimlar semantik jihatdan obrazlilik bilan tavsiflanadi. Ularning mazmunida real fauna haqidagi ma’lumot bilan birga, ramziy va mifologik tushunchalar ham saqlanib qoladi. Masalan, *arslon – botirlik, bo‘ri – erkinlik va kuch, tulki – ayyorlik* bilan bog‘liq semantik qatlamni hosil qiladi.

Olimlar tomonidan zootoponimlarning alohida guruhlarga bo‘lib o‘rganilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, N.Oxunov o‘z asarida zootoponimlarni uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, suv hayvonlari, qushlar kabi guruhlarga ajratib o‘rgangan [7;44-b.].

Uy hayvonlari nomlarining nominativ funksiyada toponimga o‘tishining bir necha sabablarini ko‘rish mumkin: 1) *ayg‘ir, nor, buqa, ho‘kiz* – baland, katta hajmli geografik obyektlarni; *toy, baytal, bo‘ta,*

buzoq – hajmi kichik obyektlarni bildirgan; 2) uy hayvonlarining nomi to‘g‘ri ma’noda qo‘shma toponimlarni yasashda ishtirok etib, keyinchalik, ellipsga uchrashi mumkin; 3) uy hayvonlarining turini atamay, odamlar qo‘shimcha qo‘yadigan nom, laqablar; 4) xalq e’tiqodi bilan bog‘liq turli pirlarining nomidan yasalgan zootoponimlar [1;69-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. XIX asrdagi zootoponimlarning ayrimlari hozir ham qo‘llanilsa, ba’zilari unutilib ketgan. Shuning uchun ularning badiiy matnlardagi qo‘llanilish xususiyatini aniqlash qiyosiy tahlilni talab etadi. Bu tadqiqotning metodologiyasini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Hayvon nomlaridan yasalgan toponimlar toponimikaning eng qiziqarli va qadimiy qatlamlaridan biridir. Nom qo‘yishda hayvonot dunyosidan foydalanish bejiz emas, chunki unda muayyan geografik va tarixiy omillarga asoslanadi. Bu jarayonning asosiy sabablari: 1) ekologik va geografik omillar bo‘lib, o‘sha hududda ma’lum bir hayvon turining ko‘p uchrashi yoki o‘sha joyning shu hayvon uchun doimiy yashash makoni bo‘lishi mumkin (masalan, *Qoraboyli*). Ya’ni, odamlar ma’lum bir joyni boshqasidan farqlash uchun “bu yerda shu hayvon turi ko‘p” degan ma’noni asos qilib olgan; 2) chorvachilik va ijtimoiy turmush – xalqimizning ko‘p asrlik turmush tarzi chorvachilik bilan doimiy bog‘liq bo‘lganligi sababli uy hayvonlarining nomlari bilan bog‘liq joy nomlari uchraydi (masalan, *Ho‘kiz ariq*); 3) metaforik va tashqi o‘xshashlik – ayrim joy nomlari o‘sha joyning relyefiga (tuzilishiga) qarab, biror hayvonning tanasiga o‘xshatiladi (masalan, *Tuyamo‘yinyer*). Tog‘ning yoki tepaliklarning ko‘rinishi uzoqdan qaysi hayvonga o‘xshasa, xalq unga o‘sha nomni bergan (masalan: *Itqir*); 4) totemlik e’tiqodlar – qadimiy davrda ayrim urug‘-qabilalar hayvonlarni o‘zlarining homiysi (totemi) deb bilganlar. Bu, o‘z navbatida, shu qavmda yashaydigan hududning nomlanishiga ta’sir qilgan (masalan, *Yo‘lbarstepa*).

XIX asr qoraqalpoq adabiyoti namoyandalarining (Ajiniyoz, Berdaq, Kunxo‘ja va h.k.) asarlarida zootoponimlar tilning badiiy va tarixiy-etnografik qatlamini aniqlashda muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ularni qoraqalpoq shoirlari asarlari misolida tahlil qilib ko‘ramiz. Masalan:

Zábd etip, atlardı qamshılar soyıp,
***Qarabaylıǵa** da jettik, yaranlar.* (Ajiniyoz)

Qoraboyli – qushning turi. Qoraqalpog‘istonning Shumanay tumanida shu nom bilan ataladigan aholi punkti bor. Ilgari bu atrofdagi ko‘lda qoraboyli degan qush ko‘p bo‘lgan. Afsona va rivoyatlarga qaraganda, hozirgi *Qorabayli* degan joyda ming uy qora jalov bog‘lab o‘tirgan. Shu sababli bu yer *Qorabayli* deb nomlangan [8;60-b.].

Qıstap aydadı ma soldat zor berip,
*Bir kúni **Qusxana tawına** jetti.* (Qulmurot)

Qusxonatog‘ – Bo‘zatov tumanida aholi punkti. Bu hududdagi tepalik qushlarning makoni bo‘lgan. Odamlar uni *Qushxona, Qushning uyasi* deb ataydi. Bu tog‘ qushlarning ko‘p to‘planadigan joyi sifatida ma’lum.

Qattıaǵardan jıqqın ketti,
*Jıldam **Qotankólge** jetti.* (Abdiqodir)

Qo‘tonko‘l–S.Qorayevning fikricha, qo‘ton qushlar oilasidagi eng yirik qush bo‘lib, Qoraqalpog‘iston toponimlari tarkibida uchraydi [4;195-b.]. E.Qo‘ychiboyevning toponimlarga doir lug‘atida *Qo‘tanko‘l* toponimini dumaloq ko‘l sifatida ta’riflangan [3;150-b.]. Bu zootoponim tarkibidagi “qo‘ton” (pelikan) – suv qushi hisoblanadi. Nom o‘sha yerda ko‘l bo‘lganini va unda qo‘ton qushlarining yashaganini ifodalaydi.

*Bunnan bardıq **Juwan balıq**,*
Qosshılardan jollıq alıp. (Umar)

Juvonbaliq toponimi haqida E.Qo‘ychiboyev shunday deydi: “Baliq tepalikning nomi (Chimkent). Uning atrofida ko‘plab buloq bor, lekin baliq yo‘q. Shu nomning o‘zida baliq so‘zining bir ma’nosi “suv” degan tushunchani ham beradi. Shuning uchun *Baliqli* oroli vaqtida “suvli tepa” ma’nosidagi gidronimik orol deyish mumkin” [3;66-b.].

Úshewimiz sonshama jollardan ótip,
*Namazsham waqtında **Ugizge** jetip.* (Ajiniyoz)

*Bir neshe at keldi **Ógiz, Salaqtan**,*
Kózi alma kibi qayshı qulaqtan. (Qulmurot)

Ho‘kiz – leksemasi ishtirok etgan toponimlar o‘sha joyda shu hayvon turi ko‘p bo‘lganini, suv resurslarining kuchliligini yoki ariq shaklini (ho‘kizning shoxiga o‘xshash egri) bildiradi. Hozirgi kunda *Ho‘kiz*

ovul toponimi Amudaryo va Qo‘ng‘irot tumanlarida uchraydi. Masalan, Qo‘ng‘irot tumanidagi qishloqning nomlanish sababi, ilgari odamlar bu yerga ho‘kiz aravada ko‘chib kelgan [8;89-b.].

Xulosa va takliflar. Zootoponimlar xalq iste’molida bo‘lganligi sababli, ularning ma’nosi ko‘pchilikka tushunarli bo‘ladi. Shu bilan birga, ularni boshqa toponimlardan ajratish oson emas. Birinchidan, tarkibida hayvon, qush nomlari bo‘lgan joy nomlarini zootoponim deb qarash to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Chunki zootoponimlarni farqlashning qiyinchiligi shundaki, ayrim qabila vakillari qandaydir hayvonni karomatli deb, uni muqaddas bilishgan. Qavmga o‘sha hayvonning nomini bergan. Bular “totem” nomlar deb qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, hayvon nomlaridan hosil bo‘lgan toponimlar onomastikaning muayyan leksik qatlamini tashkil etib, hududning hayvonot dunyosi, aholining etnomadaniy dunyoqarashi va tarixiy hayotidan ma’lumot beradi. Ularni o‘rganish joy nomlarining semantik boyligini kashf etib, til, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur anglashga imkon beradi. XIX asr qoraqalpoq shoirlari asarlari tilida bunday nomlar kam uchraydigan bo‘lsa ham, Qoraqalpog‘iston toponimiyasi uchun ahamiyatli sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бияров Б. Қазақ топонимдерінің типтік үлгілері. Астана, Ш.Шаяхметов атындағы Тілдерді дамытудың республикалық үйлестіру-әдістемелік орталығы, 2013, 460-бет.

(2). Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. Алма-Ата, “Наука”, 1974, 275 с.

(3). Қойшыбаев Е. Қазақстанның жер-су аттары сөздігі. Алматы, “Мектеп”, 1985, 256-бет.

(4). Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2005, 239-бет.

(5). Мәдиева Г.Б., Иманбердиева С.Қ. Ономастика: Зерттеу мәселелері. Астана, «1С-Сервис» ЖШС, 2005, 163-бет.

(6). Молчанова О.Т. Структурные типы тюркских топонимов Горного Алтая. Саратов, Саратовского университета, 1982, 256 с.

(7). Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. Қўқон, 2005, 90-бет.

(8). Пахратдинов Қ., Абишов Г. Қарақалпақстан топонимлери сөзлиги. Нөкис, «Bilim», 2025, 128-бет.

Muxammadiyeva Farangis G‘iyasiddin qizi (Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti;
farangis0104@gmail.com; ORCID ID 0009-0008-1863-5676)

PAOLO BACHIGALUPINING “SAMARADORLIK” VA NORMUROD NORQOBILOVNING “YETIM QOLGAN GULLAR” HIKOYALARINING QIYOSIY-EKOKRITIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Paolo Bachigalupining “Samaradorlik” (Efficiency) va Normurod Norqobilovning “Yetim qolgan gullar” hikoyalari qiyosiy ekokritik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki asarda ekologik ong, ekologik madaniyat hamda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy ifodasini aniqlashdan iborat. Norqobilov hikoyasida tabiatga nisbatan befarqlik, individual mas’uliyatsizlik va jamoaviy ekologik ongning pastligi atrof-muhitning yemirilishiga olib keluvchi omillar sifatida tasvirlanadi. Xususan, atirgullar obrazi, chiqindilar va garmsel timsoli orqali insonning tabiatga munosabati axloqiy muammo sifatida talqin etiladi. Bachigalupining “Samaradorlik” hikoyasida esa ekologik ong individual xatti-harakat bilan cheklanmay, energiya mustaqilligi, oziq-ovqat xavfsizligi, jamoaviy farovonlik va ijtimoiy hamjihatlik bilan bog‘liq tizimli hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijasida ikki muallif ekologik muammoni turlicha badiiy modellashtirgan bo‘lsa-da, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi jamiyat hayoti uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishin aniqlanadi. Maqolada, shuningdek, ekologik mas’uliyatning individual va jamoaviy shakllari qiyoslanib, ikki asardagi ekologik tafakkurning o‘xshash va farqli jihatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: ekokritika, ekologik ong, ekologik madaniyat, ilmiy fantastika, antropotsentrizm, tabiat, samaradorlik.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОКРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАССКАЗОВ «ЭФФЕКТИВНОСТЬ» ПАОЛО БАДЖИГАЛУПИ И «СИРОТСКИЕ ЦВЕТЫ» НОРМУРОДА НОРКОБИЛОВА

Аннотация. *В статье проводится сравнительный экокритический анализ рассказов Паоло Бачигалупи «Эффективность» (Efficiency) и Нормурода Норкобилова «Сиротские цветы» (Yetim qolgan gullar). Основная цель исследования заключается в выявлении художественного воплощения экологического сознания, экологической культуры, а также взаимоотношений между человеком и природой в обоих произведениях. В рассказе Норкобилова равнодушие к природе, индивидуальная безответственность и низкий уровень коллективного экологического сознания представлены как*